



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING**  
**Q A R O R I**

Termiz tumani, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 191200, tel.: (+99876) 36-32-200, faks.: (+99876) 36-32-200, termiz.t@exat.uz

---

2022 - yil 19 - yanvar

25-8-117-Q/22

Termiz tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-yil O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrda PQ-73-son va viloyat hokimining 2022-yil 12-yanvardagi 10-8-0-Q/22-sonli qarorlarining ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida**

“2022-yil O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni va viloyat hokimining 2022-yil 12-yanvardagi 10-8-0-Q/22-sonli qarorining ijrosini ta‘minlash maqsadida,

**QAROR QILAMAN:**

1. Viloyat hokimining 2022-yil 12-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-yil O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrda PQ-73-son qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”gi 10-8-0-Q/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

2022-yilda ikkinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan budjet mablag‘larining cheklangan miqdorlari;

2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdorlari;

2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari

prognozi;

foyda solig'i to'liqligicha O'zbekiston Respublikasi respublika budjetiga yo'naltiriladigan yirik soliq to'lovchilar ro'yxati tasdiqlanganligi;

quyidagi soliq turlari bo'yicha daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismi Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida to'liq hajmda qoldirilishi belgilanganligi inobatga olinsin:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

foyda solig'i (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarorida ko'rsatilgan yirik soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to'lov manbayida ushlab qolinadigan daromadlaridan to'lanadigan foyda solig'i bundan mustasno);

qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarorida ko'rsatilgan yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i bundan mustasno).

Bunda soliq turlari bo'yicha daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismini hisoblashda yirik soliq to'lovchilardan tushumlar (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarorida ko'rsatilgan yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i bundan mustasno) hududlar kesimida inobatga olinishi belgilanganligi e'tirof etilsin.

3.Tuman hokimligining Davlat budjetining barqarorligini ta'minlash va xarajatlarning samaradorligini oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2-ilovaga muvofiq tuman hokimining qaroriga o'zgartirish kiritilsin hamda ayrimlari o'z kuchini yo'qotgan deb e'tirof etilsin.

5.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilib borish tuman hokimining birinchi o'rinbosari Sh.Qalandarov zimmasiga yuklatilsin.

**Termiz tuman hokimi**



**Urinov SH. B.**

Термиз туман ҳокимининг  
2022 йил 19 январдаги  
25-8-117-Q/22-сон қарорига  
1-илова

### Davlat budjetining barqarorligini ta'minlash va xarajatlarning samaradorligini oshirish bo'yicha

#### “Yo'l xaritasi”

t/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
1.	Bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini to'liq xatlovdan o'tkazish, 2022-yilda davlat mulki obyektlari ijarasidan tushadigan tushumlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari ijrosini ta'minlash choralari ko'rish.	Chora-tadbirlar rejasi	2022-yil 1-fevral	Tuman Investitsiya va tashqi savdo bo'limi, davlat aktivlarini boshqarish agentligining viloyat hududiy va Bo'sh ob'ektlarni samarali foydalanish tashki etish boshqarmalari bilan birgalikda
2.	Markazlashgan ichimlik suv va oqova suv tizimlarini yaxshilash, obodonlashtirish sohalarida samaradorlikni oshirish va shaffoflikni ta'minlash yo'nalishlarida davlat xususiy sheriklik tamoyillari asosida amalga oshiriladigan loyihalar ro'yxatini shakllantirish.	Chora-tadbirlar rejasi	2022-yil 1-aprel	Tuman hokimligi (Sh.Raxmonqulov), tuman uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi, Suvoqova DUK tuman bo'limi
3.	“Mahalla” xayriya jamoat fondining tuman bo'limi huzurida ochilgan “Saxovat va ko'mak” jamg'armasi mablag'larining yo'naltirilishi to'g'risidagi hisobotlarni o'z rasmiy veb-saytlarida joylashtirish.	Amaliy-tashkiliy chora-tadbirlar	Hisobot choragidan keyingi oyning 25-sanasiga qadar	Tuman hokimligi (Sh.Qalandarov), tuman Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi (Z.Murodova)